

**Yuldasheva Nafisa Xasanboyevna**

*Andijon viloyati Izboskan tumani*

*12-umumiy o'rta ta'lim maktab Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ona tilini oqitishda ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg'unligi prinsipi haqida, Yangi bilimlarni o'rgatishda deduksiya va induksiya usulidan foydalaniladi. Hozirgi dastur va darsliklarda yangi bilimni asosan induksiya usuli ona tili, fan, dars, o'qitish, o'rgatish, tushuntirish, shakllantirish, talablar, ta'lim, tarbiya, imkoniyat.bilan o'rgatish ko'zda tutilganligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, malaka, fan, dars, dastur, imkoniyat, bilim, o'qitish, o'rgatish, shakllantirish.*

Ta'lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish prinsiplarini amalda qo'llash bilan chambarchas bog'langan.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga etkazishni nazarda tutadi. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarga milliy g'oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, adolatli bo'lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi.

Ona tili darslarida yoshlarni tarbiyalash yo'llari ko'p:

- har bir mavzu va bo'limning ta'limiy imkoniyatlarini to'la ishga solish;
- tanlangan matnlarning o'rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yunalishlariga to'la moslashtirish;
- darslikda berilayotgan ma'rifiy matnlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlash shular jumlasidandir.

Ona tilini oqitishda ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg'unligi prinsipi. Maktabda o'quvchilar ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarni to'g'ri ishlatish yuzasidan zarur ko'nikma va malakalar bilan ta'minlanadi. Ayni vaqtda ona tili mashg'ulotlari o'quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

Ta'limning ilmiyligini va bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsiplari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardir. Ona tili darslari madsadga ko'ra to'rt tipga ajratiladi: yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash, o'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish, bilim va malakalarni umumlashtiruvchi, bilim va malakalarni tekshirish darslari.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari ta'lim jarayonining eng ko'p qismini ishg'ol etadi. Bu dars tipining asosiy vazifasi tilning fonetik, leksik, so'z yasash,

grammatik tomonlariga oid qonuniyatlarini, orfoepiya, orfografiya, punktuatsiya, uslubiyatga doir qoidalarni o'quvchilarga o'rgatish va ularni datslabki mustahkamlashdir. Yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi vazifalar yechiladi:

- o'rgatilayotgan grammatik bilimlarning asosiy maqsadini anglash, shu bilimlarning nutq faoliyatidagi rolini fahmlash;
- mavzuga oid bilimlarning umumiy qurilishini idrok etish;
- o'rganilgan bilimni qayta xotirlash yo'lini, uni amaliyotda qo'llash usulini egallash.

Yangi bilimlarni o'rgatishda deduksiya va induksiya usulidan foydalaniladi. Hozirgi dastur va darsliklarda yangi bilimni asosan induksiya usuli bilan o'rgatish ko'zda tutilgan. Ma'lumki, deduksiya usulida umumiylikdan xususiylikka qarab boriladi. Induksiya usulida esa xususiylikdan umumiylikka qarab boriladi.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari o'z ichida ikki turga bo'linadi:

1.O'tilganlar takrorlangach, yangi o'quv materialini o'rgatish bosqichi boshlanadigan dars. Darsning bu turida o'rgatiladigan grammatik orfografik qoida, ta'riflarning mazmunidan kelib chiqib, mustaqil ish o'tkaziladi, topshiriqning natijasi jamoada tekshiriladi, tahlil qilinadi va unga tayanib o'quv materialini bayon qilinadi.

2.Yangi o'quv materialini o'rgatishdan boshlanadigan dars. Bu dars o'quvchilarning mustaqil faoliyatidan boshlanadi. O'quvchilar bajargan topshiriq va qoidalar ustida suhbat o'tkaziladi. O'quvchi o'quvchilarning xulosalariga, zarur bo'lsa, o'zgarishlar kiritadi va yakuniy xulosa chiqaradi. Keyin mustahkamlashga o'tiladi.

O'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari. Ona tilidan o'rgatilgan bilimlarning puxtaligi, ko'p jihatdan, o'qituvchining takrorlash darslarini tashkil qilishiga bog'liq. Bunday darslarda o'quvchi oldin o'rgatilgan nazariy bilimlarga, grammatik-orfografik qoidalarga takroriy qaytadi. Mashq paytida o'quvchi o'zi o'rgangan qoida asosida faoliyat ko'rsatadi. Takrorlash darslarida oldin idrok etilgan bilimlar qayta tasavvur etiladi. Takrorlash darslari, bir tomondan, turli mashqlar yordamida o'quvchilarda o'rgatilgan materiallar doirasida malaka hosil qilishiga qaratilsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning bilimlarini aniqlashtirish, kengaytirishga xizmat qiladi.

Yangi yaratilayotgan darsliklardagi berilgan lug'at so'zlar asosida biror bir qo'llanmaning yaratilmaganligi. Bu hozirgi maktablardagi eng dolzarb masala sanaladi. 2019-2020- o'quv yili boshida 8-9-sinflarning darsliklari yangilandi. Yangilangan ona tili darsligiga e'tibor bersak, ko'plab matnlar va o'sha matnlar asosidagi lug'atlar berilganligini ko'ramiz. Ba'zi lug'atdagi so'zlarni o'zimiz zo'rg'a topib, o'quvchilarga yetkazamiz. Lekin o'quvchilar bu lug'at so'zlarning ma'nosini qayerdan topishadi? Ularning izlanishlari uchun ham biror bir darsliklarga asoslangan lug'atlar jamlanmasini yaratish vaqti kelmadimikan?

Darsliklardagi berilgan qoidalarning bir - biriga mos tushmasligi. Maktab darsliklarini bir - biriga taqqoslab turib, bir sinfda berilgan ma'lumotning boshqa bir sinfdagi shu mavzuga oid bo'lgan ma'lumotdan farq qilishini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, 5-sinf ona tili darsligida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari to'rt xil deb ko'rsatilgan bo'lsa, 10-sinf ona tili darsligida faqat uchta haqida ma'lumot berilgan. 5-sinf ona tili darsligida ilmiy va kasbiy atamalar deyilgan mavzu bor. 10-sinf ona tili darsligida esa ilmiy atamalar terminlar deb atalyapti. O'qituvchilar esa o'quvchilarga ularning bir narsani anglatuvchi tushuncha ekanligini tushuntirgunicha qancha vaqt o'tishini o'ylab ko'rganmisizlar? O'quvchilarning hammasi ham birdaniga buni tushuna olmaydi-ku! Yoki 9-sinf darsligida qo'shma gaplar bog'lovchi vositalariga qarab uch turga bo'linishi haqida ma'lumot bor: bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz. Ammo 10-sinf darsligi "Qo'shma gaplar uslubi" mavzusida qo'shma gaplarning bog'lovchi vositalariga ko'ra ikkiga: bog'lovchili va bog'lovchisiz turlarga bo'linishi ko'rsatilgan. Bunday misollarni ko'plab topish mumkin. Shu o'rinda bir haqli savol tug'iladi: "Bunday holatda o'qituvchilar qanday yo'l tutishi kerak? Axir, o'quvchilar uchun darslik eng muhim va ishonchli manba sanaladi-ku!" Nazarimda, darsliklar ustida ham puxta ishlash vaqti keldi. O'quvchilar bir narsani turli xil o'rganishdan charchadilar. E'tibor berganmisiz, ingliz tili o'rganayotgan bola maktabda o'rganagan ma'lumotlaridan keying faoliyatida ham bemalol foydalana oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
2. Azlarov T., Monsurov X. «Matematik analiz.» 1-qism -T.: «O'qituvchi». 1994. .
3. Axmedov M va boshqalar Matematika 1, Toshkent.: O'zinkomsentr, 2003, 160-bet.
4. Bikbayeva N.U va boshqalar Matematika 2 – Toshkent.: O'qituvchi, 2010, 208 bet.
5. Bikbayeva N.U va boshqalar Matematika 3 – Toshkent.: O'qituvchi, 2010, 206 bet.